

“TASDIQLAYMAN”
Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi Toshkent shahar hududiy
boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari
– Xarid komissiyasi raisi



J. Axmedov
2026-yil 14-yanvar

2017-yilda ishlab chiqarilgan 01 749 KNA davlat raqamli “Nexia-3” rusumli xizmat avtomashinasini baholash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun mustaqil baholash tashkilotlarni jalb qilish bo‘yicha Xarid komissiya yig‘ilishi
1-SON BAYONI

2026-yil 14-yanvar

Toshkent sh.

Qatnashdilar: J. Axmedov, A. Ko‘charov, A. Qodirov,
M. Kasimov, Z. Qahhorov.

Komissiya kotibi: A. Azizov.

KUN TARTIBI:

2017-yilda ishlab chiqarilgan 01 749 KNA davlat raqamli “Nexia-3” rusumli xizmat avtomashinasini baholash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatish uchun mustaqil baholash tashkilotlarni jalb qilish bo‘yicha boshlang‘ich narx qiymatini belgilash va etender.uzex.uz portaliga (sayti) joylashtirish

(J. Axmedov, A. Ko‘charov, A. Qodirov, M. Kasimov, Z. Qahhorov)

Kun tartibidagi masala bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat aktivlarini samarali boshqarishni tashkil etishda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining boshlang‘ich qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 26-iyuldagi 312-son qarori va Davaktiv agentligining 2023-yil 31-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi 312-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida”gi 197-son buyrug‘iga asosan davlat aktivlarini xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga berish, xo‘jalik jamiyatlari ustav fondiga kiritish, davlat aktivlarini tasarruf etish va butligini saqlash bilan bog‘liq boshqa holatlarda ularni baholashda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining boshlang‘ich qiymatini aniqlash tartibi belgilangan.

Davaktiv agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2023-yil 26-sentabrdagi 90-son buyrug‘i bilan “Davlat aktivlarini samarali boshqarishda professional tashkilotlar va ixtisoslashgan konsalting tashkilotlari tomonidan

ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi xarid komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida reglament" tasdiqlangan.

Shunga ko'ra, Davaktiv agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan 2017-yilda ishlab chiqarilgan 01 749 KNA davlat raqamli "Nexia-3" rusumli xizmat avtomashinasini baholash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun mustaqil baholash tashkilotlarni jalb qilish yuzasidan texnik topshiriq va texnik hujjatlar ishlab chiqildi (*ilova qilinadi*).

Shu bilan birga, Davaktiv agentligining Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2023-yil 26-sentabrdagi 90-son buyrug'i bilan tasdiqlangan reglamentga muvofiq mustaqil baholash tashkilotlar tomonidan kelib tushadigan takliflarni baholash mezonlari va ularning imkoniyatlarini baholash bo'yicha reyting ko'rsatkichlarini zarur hollarda Xarid komissiyasining qarori bilan baholash mezonlariga o'zgartirish kiritilishi mumkinligi keltirilgan, shunga asosan texnik qismining miqdoriy ko'rsatkichlari uchun maksimal **60 ball** (*baholashni amalga oshirish bo'yicha jalb qilinayotgan mutaxassislarning malakasi va tajribasi (20 ball)*), *baholashni amalga oshirish bo'yicha jalb qilinayotgan kompaniya (konsultant)ning malakasi va tajribasi (20 ball)*, *baholashni amalga oshirish muddati (10 ball)*, *baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasiga a'zoligi to'g'risidagi hujjatlar (10 ball)* hamda narx taklifi ko'rsatkichi uchun maksimal **40 ball** (*avtomatik ravishda tizim tomonidan baholanadi*) berilishi belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **Komissiya qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining "Davlat aktivlarini samarali boshqarishni tashkil etishda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining boshlang'ich qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2023-yil 26-iyuldagi 312-son qarori va Davaktiv agentligining 2023-yil 31-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi 312-son qarori ijrosini tashkil etish to'g'risida"gi 197-son buyrug'iga asosan davlat aktivlarini xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga berish, xo'jalik jamiyatlari ustav fondiga kiritish, davlat aktivlarini tasarruf etish va butligini saqlash bilan bog'liq boshqa holatlarda ularni baholashda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining boshlang'ich qiymatini aniqlash tartibi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davaktiv agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan 2017-yilda ishlab chiqarilgan 01 749 KNA davlat raqamli "Nexia-3" rusumli xizmat avtomashinasini baholash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun mustaqil baholash tashkilotlarni jalb qilish yuzasidan texnik topshiriq va texnik hujjatlar tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyuldagi 312-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat aktivlarini samarali boshqarishni tashkil etishda baholovchi tashkilotlar xizmatlarining boshlang'ich qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi" Nizomning 6-ilovasida keltirilgan "Boshqa davlat aktivlari baholanganda xizmatlar boshlang'ich qiymatini aniqlash bo'yicha" baholanganda xizmatlar boshlang'ich qiymatini aniqlash bo'yicha kalkulyatsiya asosida shakllangan boshlang'ich narx miqdorida <https://etender.uzex.uz> elektron

maydonchasiga mustaqil baholash tashkilotlarni jalb qilish bo'yicha e'lon joylashtirilishi ta'minlansin.

Bunda, Davaktiv agentligining Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2023-yil 26-sentabrdagi 90-son buyrug'i doirasida amalga oshirilsin.

4. Minimal o'tish bali 30 ball etib belgilansin va 5 ish kuni muddati bilan <https://etender.uzex.uz> elektron maydonchasiga joylashtirilsin.

BAHOLASH UCHUN TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Buyurtmachi – O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi.

2. Buyurtmachi manzili – 100066, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, I. Karimov ko‘chasi, 55-uy.

3. Baholash maqsadi:

Belgilangan tartibda keyinchalik sotish uchun avtotransportning bozor qiymatini aniqlash.

Baholash O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Baholash avtotransporti

2017-yilda ishlab chiqarilgan 01 749 KNA davlat raqamli “Nexia-3” rusumli xizmat avtomashinasi

| № | Nomi | Ma’lumot |
|----|---|--|
| 1. | Baholanayotgan avtotransportning nomi va tavsifi | “Nexia-3” rusumli xizmat avtomashinasi Davlat raqam belgisi – 01 749 KNA Rangi – oq Dvigatel raqami – B15D211170467GRXX0213 Kuzov raqami – XWBTF69V1HA018396 |

5. Ijrochi va baholovchi - baholash uchun mas’ul shaxslar.

6. Avtotransport egalik huquqi

Mulk huquqi.

7. Baholash natijalaridan foydalanish maqsadi

Buyurtmachi tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalaniladi.

8. Belgilangan qiymat turi

Bozor qiymati - bu aktivni baholash sanasida sotuvchi tomonidan xohlovchi xaridorga to‘g‘ri marketingdan so‘ng, har bir tomon yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, ehtiyotkor va majburlovsiz harakat qiladigan tijorat bitimida sotilishi mumkin bo‘lgan taxminiy pul miqdori.

Aktivning bozor qiymati undan eng samarali foydalanilishini aks ettiradi. Bunday foydalanish jismonan mumkin, qonuniy ruxsat etilgan va moliyaviy jihatdan amalga oshirilishi kerak.

Bozor qiymati asosidagi baholashlar taqqoslanuvchi avtotransportlarga tegishli axborotga asoslanishi lozim.

Baholash jarayoni baholovchidan zarur va kerakli tekshiruvlarni o‘tkazishni, to‘g‘ri tahlil olib borishni hamda axborot va dalillar bilan asoslangan farazlarni shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonda baholovchilar bozorda kuzatiladigan va ishga daxldor barcha faktlarni, tendensiyalarni, taqqoslanuvchi bitimlarni va boshqa axborotni baholash vazifasiga bog‘lik tarzda ko‘rib chiqishga majbur.

Bozor ma'lumotlari cheklangan bo'lsa yoki umuman mavjud bo'lmasa, baholovchi baholash hisobotida lozim darajada vaziyatni ochib berishi hamda ma'lumotlarning yetarli emasligi bois hisob-kitoblar qanday tarzda cheklanganligini (agar cheklangan bo'lsa) ko'rsatishi lozim.

Agar baholovchi baholanayotgan baholash avtotransporti bozoriga aloqador bo'lgan ochiq ma'lumotlar va holatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, baholash jarayonida qo'llaniladigan har bir yondashuv yoki usul bilan baholash avtotransportining bozor qiymatini aniqlashni ta'minlashi lozim.

9. Baholash sanasi

2025-yil 1-dekabr holatiga asosan.

10. Baholash muddati

Baholash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan kundan boshlab 7 kun.

11. Baholash asoslanishi kerak bo'lgan taxminlar va cheklovlar

Mulkni baholash Buyurtmachi va/yoki mulk, mulk egasi/operatori tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga, shuningdek baholovchi tomonidan shaxsan to'plangan ma'lumotlarga asoslanadi.

Baholash sanasidan keyin sodir bo'lgan voqealar to'g'risidagi ma'lumotlardan, agar bunday ma'lumotlar baholash sanasida mavjud bo'lgan bozor taxminlariga mos kelsa, baholash avtotransportning qiymatini aniqlash uchun faqat baholash sanasida mavjud bo'lgan tendensiyalarni tasdiqlash uchun foydalanish mumkin.

Baholash o'tkazilayotganda baholanayotgan avtotransportning qiymatiga ta'sir etuvchi, mavjud ochiq ma'lumotlar va (yoki) shartnoma taraflari tomonidan baholovchiga taqdim etilgan barcha og'irliklar va majburiyatlar hisobga olinishi kerak. Agar baholash jarayonida og'irliklar aniqlansa, baholovchi baholash hisobotida og'irliklar mavjudligini ko'rsatishi va ularni hisob-kitoblarda hisobga olishi shart.

Hisobotda baholovchining baholanayotgan mulkning bozor qiymati to'g'risidagi professional xulosasi bo'lishi kerak.

Baholovchi tomonidan olingan hisob-kitoblar va xulosalar uning ixtiyorida bo'lgan ma'lumotlarga, shuningdek, Buyurtmachi tomonidan aloqa qiluvchi shaxsdan olingan ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

Baholash bo'yicha hisobot faqat to'liq hajmda amal qiladi, uning alohida qismlaridan ularning o'zaro bog'liqligisiz har qanday foydalanish Baholovchining nuqtai nazarini aks ettirmaydi.

Baholovchi bozor konyunkturasi uchun javobgar emas va baholash sanasidan keyin sodir bo'lgan voqealar yoki o'zgarishlarni aks ettirish uchun ushbu Hisobotga o'zgartirishlar kiritish majburiyatini olmaydi.

12. Ijrochiga qo'yiladigan talablar

Ijrochi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tashkilot mulkni tekshirish (audit jarayoni)da ishtirok etmasligi kerak;
- amalga oshirilayotgan loyihalarning mavjudligi va sifatini tasdiqlay oladigan aloqa shaxslarning ro'yxati, telefon raqamlari va elektron pochta manzillarini ko'rsatgan holda milliy standartlar bo'yicha baholangan kamida 3 ta o'xshash loyihani (shu jumladan xususiy lashtirishni) amalga oshirgan bo'lishi. Mijozlardan

yoza tavsiyalar berishga ruxsat beriladi (baholash tashkilotining muhri bilan tasdiqlangan nusxalari);

Shartnoma tuzilgunga qadar (litsenziya berilgan sana bilan belgilanadi) kamida 1 yil davomida (aktivlarni) baholash faoliyatini amalga oshirish;

Baholash faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs maqomiga ega baholovchi tashkilot bo'lishi.

Baholovchi tashkilotning rahbari baholovchi bo'lishi.

Baholovchilarda amalda bo'lgan baholovchilar malaka sertifikatini mavjudligi.

Baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalaridan biriga a'zo bo'lish.

Baholovchi tashkilotda baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi sug'urta polisining mavjudligi.

13. Ijrochining majburiyatlari:

baholash faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarga rioya qilish;

baholovchining (baholovchilarning) malaka sertifikatini shartnoma tuzilishi oldidan buyurtmachining talabiga ko'ra ko'rsatishi;

baholash avtotransportini baholashdan o'tkazishda xolisona baholashni o'tkazishga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi oqibatida o'zining ishtirok etish imkoniyati yo'qligi to'g'risida buyurtmachiga xabar berishi;

buyurtmachining so'rovnomasiga ko'ra baholash faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablari haqida axborot taqdim etishi;

baholash avtotransportini baholashdan o'tkazish davomida olinadigan hujjatlarning but saqlanishini ta'minlashi;

baholash avtotransportini baholashdan o'tkazish davomida aniqlangan zarar yetkazilganligi, shuningdek qonunchilikning boshqacha tarzda buzilganligi faktlari to'g'risida baholash avtotransporti mulkdoriga va (yoki) buyurtmachiga xabar berishi;

baholash to'g'risidagi hisobotning nusxasi uch yil mobaynida saqlanishini ta'minlashi;

baholash avtotransportini baholashdan o'tkazish davomida buyurtmachidan olingan ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlashi;

buyurtmachining iltimosiga binoan, baholash ishlari bo'yicha shartnoma tuzishdan oldin, baholash tashkilotlarining professional jamoat birlashmalaridan biriga a'zolik, baholashda bevosita ishtirok etadigan baholovchining (baholovchilarning) malaka sertifikatini taqdim etishi;

buyurtmachini baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida obyektiv baholashga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganligi sababli uning baholashda ishtirok etishi mumkin emasligi to'g'risida xabardor qilish;

buyurtmachining iltimosiga binoan bajarilayotgan ishlar to'g'risida to'liq ma'lumot berish;

baholash jarayonida olingan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;

3 yil davomida baholash davomida Buyurtmachidan olingan ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash (ushbu muddat tugagunga qadar ishdan bo'shatilgan xodimlar tomonidan ham ta'minlanishi kerak);

ijrochi hech qanday tarzda Kompaniya bilan, shuningdek, unga ma'lum bo'lgan har qanday potensial investor bilan bog'liq aloqasi bo'lmasligi kerak. Pudratchi Kompaniyani baholash munosabati bilan har qanday potensial investordan qo'shimcha haq (kompensatsiyalar) olishga yoki har qanday kafolatlarga ega bo'lishga haqli emas. Pudratchi har qanday potensial investor bilan bog'langan bo'lsa yoki Ijrochi (O'zbekiston yoki boshqa mamlakatlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa kompaniyalar, shu jumladan bir xil xalqaro tarmoqqa kiritilgan kompaniyalar) har qanday ma'lum bo'lgan potensial investorga baholash, audit, konsalting yoki boshqa professional xizmatlarni taqdim etgan taqdirda, Ijrochi, mustaqilligini ta'minlash maqsadida baholash bo'yicha shartnomani imzolashdan oldin, bunday xizmatlarni ko'rsatganligining tafsilotlari va mazmunini, shu jumladan xizmat turini, xizmatlarni ko'rsatish muddatini (yillarini), mamlakatlarni va boshqalarni yozma ravishda oshkor qilishi kerak. Buyurtmachi qo'shimcha ravishda baholash jarayonida ko'rsatilgan faktlarni tasdiqlash/tasdiqlamaslik uchun tegishli yozma so'rovlarni kiritish huquqiga ega bo'ladi va baholash davrida Ijrochi ushbu ma'lumotlarni har qanday potensial investorga nisbatan yozma ravishda taqdim etishi shart.

14. Baholash talablari:

Baholashda xarajat/qiyosiy/daromadlarni baholash yondashuvlaridan foydalanish mumkin. Ijrochi baholashning har bir yondashuvi doirasida baholashning o'ziga xos usullarini mustaqil ravishda belgilashga haqli. Agar har bir yondashuv muvaffaqiyatsiz bo'lsa, Baholash to'g'risidagi hisobotning tegishli bo'limida baholashga bunday yondashuvni qo'llashni asosli rad etish kerak. Yondashuvlar doirasida usullarni tanlash baholovchi tomonidan baholash avtotransportining o'ziga xos xususiyatlari va undan yanada samarali foydalanish istiqbollari asosida amalga oshiriladi.

Baholash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 28-dekabrda 3487-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti (keyingi urinlarda – Yagona milliy baholash standarti) asosida amalga oshirilishi shart.

Baholash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Baholash hisobotiga qo'yiladigan talablar

Oldindan tasdiqlash uchun Buyurtmachiga hisobot loyihasi elektron shaklda himoyalangan rejimda (tahrirlash imkoniyati bilan), o'zbek tilidagi barcha hisob-kitob jadvallari/fayllar Excel formatida himoyalangan shaklda (tahrirlash imkoniyati bilan) taqdim etiladi. Formulalar/munosabatlarning saqlanishi, shuningdek, skanerlangan ishchi hujjatlarning asl nusxasi va Excel jadvallarida baholangan avtotransportning asosiy aktivlarining tavsifi ham taqdim etilishi kerak.

Baholash to'g'risidagi hisobot va uni tuzish tartibi Yagona milliy baholash standartining 4-son milliy baholash standartlari asosida amalga oshirilishi shart.

Baholashning yakuniy natijalari Buyurtmachiga belgilangan tartibda ikki nusxada tuzilgan baholash avtotransportini baholash to'g'risidagi yozma hisobot shaklida taqdim etilishi kerak (keyingi o'rinlarda – Hisobot deb yuritiladi).

Hisobot baholashda foydalanilgan hujjatlarning nusxalarini o'z ichiga olgan ilovalar bilan to'ldiriladi.

Jamiyat tomonidan taqdim etilgan hujjatlar tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak: qog'oz nusxasi tashkilot rahbari yoki tegishli vakolatga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlangan bo'lishi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Hisobot sahifadan sahifaga raqamlangan, muhrlangan va Baholovchi va Ijrochi rahbari tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

16. Baholash hisoboti uchun alohida talablar

Baholash to'g'risidagi hisobotda baholash sanasi bo'yicha baholanayotgan avtotransportga tegishli bo'lgan asosiy vositalar, tugallanmagan qurilish va boshqa aktivlar bahosi tavsifi alohida ilovaga kiritilishi kerak. Ushbu aktivlarning bozor qiymatini hisoblash natijalari, shu jumladan avtotransportlar bo'yicha jadval shaklida berilishi kerak.

17. Hisoblash uchun maxsus talablar

Baholash bo'yicha hisobotda har bir yondashuvda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar va hisoblash tartib-qoidalarining tavsifi bo'lishi kerak, qo'llaniladigan yondashuvlar va har bir yondashuvda qo'llaniladigan usullarni tanlash asoslanishi kerak.

18. Baholashga oid vazifani tayyorlash, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish baholovchi tomonidan buyurtmachi bilan birgalikda Yagona milliy baholash standartining "Baholashga oid vazifa" 2-son Milliy baholash standarti asosida amalga oshiriladi va baholash shartnomasining ajralmas qismi sifatida ilova qilinadi.

19. Baholash jarayonida o'tkaziladigan o'rganishlar va tahlillar.

Baholash jarayonida axborotni to'plash, o'rganish, tahlil qilish va ulardan foydalanish Yagona miliy baholash standartining "Baholash jarayonida o'tkaziladigan o'rganishlar va tahlillar" 3-son Milliy baholash standarti asosida bajariladi.

asoslangan baholash to'g'risidagi hisobotni tayyorlash uchun baholovchi baholash avtotransportni identifikatsiya qilish (ko'zdan kechirish), so'rovlar tuzish, tahlil o'tkazish va hisob-kitoblar kabi vositalar yordamida yetarli miqdorda ma'lumotlar to'plashi;

baholovchi yig'ilgan (buyurtmachi yoki uning vakillaridan olingan) birlamchi hujjatlarga ega bo'lgan holda buyurtmachi yoki baholash avtotransporti balansda saqlovchisining vakili bilan birgalikda baholash avtotransportini ko'zdan kechirish, uning amaldagi holatini o'rganish, uni tavsiflash, o'lchash, fotosuratga olish va baholash avtotransportini indentifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan boshqa harakatlarni amalga oshirishi;

baholash buyurtmachisi yoki uning vakili baholovchiga belgilangan tartibda baholash avtotransportiga kirishni ta'minlashi shart;

baholash avtotransporti identifikatsiya qilinmagan (ko'zdan kechirishdan o'tkazilmagan) taqdirda, baholovchi baholash to'g'risidagi hisobotda identifikatsiya

qilmaganlik (ko'zdan kechirilmaganlik) sabablari hamda u bilan bog'liq farazlarni ko'rsatib o'tishi;

Agar baholash avtotransportini identifikatsiya qilishda baholashga oid vazifaga kiritilgan va bajarilayotgan o'rganishlar natijalari ishonchli baholashni ta'minlamasa yoki taqdim etilgan axborot noto'g'ri bo'lsa yoxud axborotni olishning imkoni bo'lmasa, baholovchi baholashni davom ettirishni rad etishi lozim.

20. Baholashning yondashuvlari va usullari.

Baholovchi baholashning yondashuvlari va usullarini tanlashda Yagona milliy baholash standartining "Baholashning yondashuvlari va usullari" 6-son Milliy baholash standartiga rioya etishi shart.

baholash usullarini tanlashda kamida quyidagilarni hisobga olish kerak:

baholashga oid vazifada ko'rsatilgan shartlar va maqsadlarga muvofiq aniqlanadigan baholash qiymat(lar)i va zarur shart-sharoitni (dastlabki shart-sharoitlarni);

baholashda qo'llash mumkin bo'lgan yondashuvlar va usullarning kuchli va zaif tomonlarini;

baholash avtotransportining tavsifidan kelib chiqib, har bir yondashuv va usullarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi;

baholash maqsadi va vazifalari;

zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi, to'liqligi va ishonchliligi; o'tkaziladigan baholashdagi farazlar va cheklovlar;

baholash natijalaridan foydalanish taxmini;

baholash avtotransportini baholashni amalga oshirishda baholovchi qiyosiy, daromad va xarajat yondashuvlarini qo'llashi lozim. Baholash jarayonida baholash yondashuvlari va usullarini qo'llash yoki qo'llashni rad etish baholovchi tomonidan asoslab berilishi;

baholovchi har bir baholash yondashuvi doirasida aniq baholash usullarini o'zi mustaqil belgilash huquqiga ega. Baholash usullarini tanlashda u yoki bu usulni qo'llash uchun axborotning yetarliligi va ishonchliligi hisobga olinadi.

agar baholovchi baholashga oid vazifa shartlaridan kelib chiqib yagona baholash usulining aniqliligi va to'g'riligiga ishonch hosil qilgan bo'lsa, qiymatni baholashning bittadan ko'p usulidan foydalanishiga zarurat bo'lmaydi. Yagona usulni qo'llashda yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, baholovchilar qiymatni aniqlash uchun bir nechta baholash yondashuvlari va usullaridan foydalanishni ko'rib chiqishlari;

agar bir nechta baholash yondashuvlari va usullari yoki bir yondashuv doirasida bir nechta usullar qo'llanilsa, bunday yondashuvlar va/yoki usullar yordamida olingan baholash natijalari muvofiqlashtirilishi lozim. Bunda, baholash natijalari o'rtacha qiymatni hisoblamasdan baholash to'g'risidagi hisobotda aks ettirilishi;

agar baholashda turli yondashuvlar va/yoki baholash usullaridan foydalangan holda, qiymat ko'rsatkichlarida jiddiy farqlanishlar olinsa, baholovchi qiymat ko'rsatkichlari nima uchun bunday farqlanayotganini tushunish uchun tahlil olib borishi kerak. Bunda, ikki yoki undan ortiq farqlanayotgan qiymat ko'rsatkichini oddiygina (arifmetik) o'lchash (kelishishi) maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

**Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha
TEXNIK HUJJAT**

Buyurmachi – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi

**Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha
MA'LUMOT**

| T/r | Umumiy ma'lumotlar | Izoh |
|------------|------------------------------------|---|
| 1 | Buyurmachining nomi | Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi |
| 2 | Buyurmachining manzili | 100066, Toshkent sh. I.Karimov ko'chasi, 55-uy |
| 3 | Buyurtmadan ko'zlangan maqsad | Realizatsiya qilish |
| 4 | Boshlang'ich narxi | 618 000,0 so'm |
| 5 | Tanlash uslubi | Baholash orqali |
| 6 | Moliyalashtirish manbai | Maqsadli jamg'arma |
| 7 | Avans to'lovi | 30% (umumiy qiymatidan) |
| 8 | Qolgan to'lovi | 70% (Umumiy qiymatidan) |
| 9 | To'lov shakli | Naqd ko'rinishida emas |
| 10 | To'lov valyutasi | Milliy valyuta (so'm) |
| 11. | Baholashni amalga oshirish muddati | 7 kun |
| 12 | Baholashni yakunlash | tegishli hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi. |

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO‘YICHA TANLOV KOMISSIYASINING ISH TARTIBI

(REGLAMENT)

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasining ish tartibi 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-son Qonuni talablari doirasida amalga oshiriladi.

1.2. Mazkur tanlov komissiyasining ish faoliyati, mezonlari va baholash tartibi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

1.3. Boshlang‘ich narxini belgilash, e‘longa 5 ish kunidan kam bo‘lmagan vaqtga chiqarish, texnik hujjatlari ishlab chiqadi hamda tanlov komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi (*yoki boshqa hujjatlar bilan*).

1.4. Eng yaxshi takliflarni tanlash va g‘olibni aniqlash mezonlari tovar (*ish, xizmat*) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifatiga ham e‘tibor qaratadi.

1.5. Ishtirokchilar tomonidan noto‘g‘ri, yolg‘on va/yoki shunga o‘xshash maqsadga nomuvofiq bo‘lgan hujjatlar birlashtirilgan taqdirda tanlov komissiyasi tomonidan “0” baho bilan baholash va/yoki bunday ishtirokchini tanlov jarayonidan chetlashtirish vakolatini o‘zida saqlab qoladi.

II. Tanlov komissiyasining ish faoliyatini tashkil qilish va kelib tushgan takliflarni o‘rganib chiqish hamda baholash.

2.1. Tanlov komissiyasi tomonidan texnik topshiriq hamda texnik hujjat ishlab chiqiladi, boshlang‘ich narxini aniqlash imkoni bo‘lmaganida ixtisoslashgan tashkilotlarga so‘rovnoma yuboriladi va so‘rovnomaga asosan kelib tushgan takliflar orasidan eng arzon taklif etilgan tijorat taklifi boshlang‘ich narx sifatida belgilanadi, shuningdek zuriyatga ko‘ra boshqa hujjatlar ishlab chiqiladi hamda komissiya kotibi tomonidan bayonnomaga ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

2.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo‘yicha tanlov komissiyasi tomonidan kelib tushgan takliflar o‘rganib chiqiladi, tahlil qilinadi, komissiya raisi ishtirokida yig‘ilish tashkil etiladi va baholash ishlari komissiya kotibi tomonidan bayonnomaga ko‘rinishida rasmiylashtiriladi, shuningdek tanlov komissiyasi quyidagilarni alohida ko‘rib chiqadi va o‘rganadi, xususan:

– tanlov jarayonida tanlov komissiyasi tomonidan ishtirok etayotgan ishtirokchilarning takliflari o‘rganiladi;

– ishtirokchilarning malakasi va tajribasi;

– tashkilotning tajribasi va malakasi;

– Baholashni amalga oshirish muddatlari;

– taqdim etiladigan boshqa hujjatlar, ularning rasmiylashtirilishi (*imzo, muhr*), ma‘lumotlardagi sifat va ko‘rilgan puxta tayyorgarligi, taqdim qilingan hujjatlar imkoniyat darajasida tekshiriladi;

– taqdim etilayotgan ma‘lumotlarda noto‘g‘ri, yolg‘on ma‘lumotlar taqdim etilmaganligi (*mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda*);

– taqdim etilayotgan ma’lumotlarda noto’g’ri, yolg’on ma’lumotlar aniqlangan taqdirda ularga nisbatan ko’riladigan choralar va oqibatlarining chuqur tahlili (*mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda*);

2.3. Komissiya kotibi tomonidan rasmiylashtirilgan bayonnoma asosida tanlov komissiyaning baholagan ballari tizimga kiritiladi va tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan kiritilgan baholar tanlov komissiyasi tomonidan elektron imzo orqali tasdiqlanadi.

2.4. Tanlov ishtirokchilari minimal o’tish ballarini to’play olmagan taqdirda keyingi bosqichga avtomatik ravishda tizim tomonidan o’tkazilmaydi.

2.5. G’olib aniqlanganidan so’ng 2 kunlik muddatga portalga joylashtiriladi, muhokama yakunlanganidan so’ngina tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi va tegishli tarkibiy bo’linmalar shartnoma loyihasi qayta ko’rib chiqilib tizimga yuklanadi.

2.6. Tanlov komissiyasi tomonidan ovozga qo’yish natijalari (*ichki tanlov bayonnomalari*) haqidagi ma’lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etishga yo’l qo’yilmaydi.

2.7. G’olib bo’lgan ishtirokchi tomonidan shartnoma loyihasi ko’rib chiqiladi va imzolanadi.

2.8. Shartnoma rasmiylashtirilgan kundan boshlab texnik topshiriqqa muvofiq tegishli ishlar boshlanadi.

Texnik qismini baholash bo’yicha MA’LUMOT

1-jadval

| T/r | Mezonlar va talablar | Baholash usuli | Ball |
|------------|--|--|-------------|
| 1. | Baholashni amalga oshirish bo’yicha jalb qilinayotgan mutaxassislarning malakasi va tajribasi | Tanlov komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi | 20 ball |
| 2. | Baholashni amalga oshirish bo’yicha jalb qilinayotgan kompaniya (konsultant)ning malakasi va tajribasi | Tanlov komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi | 20 ball |
| 3. | Baholashni amalga oshirish muddati | Tanlov komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi | 10 ball |
| 4. | Baxolovchi tashkilotlar asotsiatsiyasiga a’zoliigi | Tanlov komissiyasi tomonidan taqdim | 10 ball |

| | | |
|---|---|----------------|
| to'g'risidagi xujjatlar | etilgan takliflardan kelib chiqib baholanadi | |
| Texnik qismining jami baholanishi: | | 60 ball |

Texnik qismini baholash bo'yicha

Tanlov komissiyasi tomonidan kelib tushgan takliflardan eng yaxshisini tanlab olish maqsadida, takliflar o'rganib chiqiladi va baholash ishlari amalga oshiriladi. Taqdim etilgan takliflar orasidan noto'g'ri va/yoki yolg'on ma'lumotlar tanlov komissiyasi tomonidan aniqlangan taqdirda bunday ishtirokchiga "0" ball yoki tanlov jarayonidan chetlashtiriladi (*diskvalifikatsiya*). Shuningdek, minimal keyingi bosqichga o'tish ballarini to'play olmagan tanlov ishtirokchilari keyingi bosqichga avtomatik ravishda o'tkazilmaydi.

Narx qismining baholanishi bo'yicha

MA'LUMOT

2-jadval

| T/r | Mezonlar va talablar | Baholash usulida | Ball |
|---|-----------------------------------|---|----------------|
| 1. | Taqdim etilgan tijorat taklifi | Tizim tomonidan avtomatik ravishda baholanadi | 40 ball |
| Narx qismining jami baholanishi: | | | 40 ball |

Narx qismining baholanishi bo'yicha

Mazkur jarayonda tanlov komissiyasining ishtirokisiz tizim tomonidan avtomatik ravishda baholanadi.

* – keyingi bosqichga minimal o'tish bali **30 ball**